

**Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*Tillar fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning beqiyos xizmatlari tufayli turk tili umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin olganligi haqida, Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy umri davomida turk tilini rivojlantirishga, uning o'sha paytda keng quloch yozgan fors-tojik tili bilan bemalol tenglasha olishini va turk tilining g'ozalligini isbotlashga harakat qildi. Ushbu tilda mashhur, abadiyat bilan tenglasholadigan asarlar yaratganligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Alisher Navoiy, turk tili, turkiy madaniyat, asar, adabiyot, jahon madaniyati, umumbashariy g'oyalar.*

Buyuk Alisher Navoiyning go'zallikni kuylagan asarlari, umumbashariy g'oyalari jahon madaniyati va adabiyoti tarixidagi ulug' siymolarning ijodi bilan hamohangdir.

Alisher Navoiydagi bag'rikenglik, odillik, donolik, siyosatdonlik va fuqarolarga g'amxo'rlik fazilatlarini Boyqaroga davlatni adolatli boshqarishda yaqindan yordam bergan. Shuning uchun ham Husayn Boyqaro Navoiyni do'st sifatida benihoya ulug'lagan va qadrlagan. Har qanday sharoitda ham uni yonidan uzoqlashtirmaslikka harakat qilgan. Ularning do'stligi davlatni mustahkamlash, yurtida adolat o'rnatish, til, madaniyat, san'at, ilm-fanni rivojlantirish bilan birga, davlatning mudofaa qudrati, xalqaro obro'-e'tiborini oshirishga xizmat qildi.

Buyuk shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi.

Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, o'zbek tilining beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

Alisher Navoiyning beqiyos xizmatlari tufayli turk tili umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi. Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, tarixchi olim Xondamir Navoiy haqida shunday deydi: "Hech kim turkiy tilni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan."

Hazrat Alisher Navoiy asarlari hayotlik davridayoq ma'lum va mashhur bo'lgan. Navoiy asarlariga qiziqish, uni o'rganish, ilmiy merosini tahlil qilish har qanday millat va har qaysi zamonning tadqiq obyekti bo'lgan desak adashmaymiz. Zero, Navoiy asarlari zamonlar oshsa ham eskirmaydi. Uning asarlari zamiriga singdirilgan ma'nolar xazinasini yildan-yilga yangilanib, yosharib boradi. Navoiy ijodi nafaqat o'zbek olimlari,

balki turk olimlari tomonidan ham ancha mufassal o'rganishlar va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Turk navoiyshunoslari orasida maqtovg'a sazovor bo'la oladigan olimlardan biri professor Kamol Eraslandir. Olimning xizmati shundan iboratki, u "Alisher Navoiyning "Nasyimul muhabbat min shamoyimil futuvvat" asarining matn vat il xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini 1970-yilda himoya qilib, bu asarga qo'shimcha ravishda "Holoti Sayid Hasan Ardasher" va "Pahlavon Muhammad" risolasini ham nashr ettirdi.

Turkiya kutubxonalarida Navoiy asarlari qo'lyozmalari talaygina. To'pqqopi Revan saroyi kutubxonasida saqlanayotgan Muhammad Darvesh Toqiy tomonidan Hirotda 1496-97-yillarda Navoiy hayotligidayoq ko'chirilgan qo'lyozma muhim ahamiyatga ega. Bu qo'lyozmaning fotonusxasini O'zbekistonga olib kelgan professor H.Sulaymon shunday yozgan edi: "Sulton Husayn kutubxonasining mahoratli peshqadam xattotlaridan bo'lgan Darvesh Muhammad Toqiy ko'chirgan kulliyotning mazkur qo'lyozmasini Navoiyning o'zi ham ko'rgan bo'lishi Shubha bo'lmasligi kerak. Chunki bu qo'lyozma shoirning o'zi tuzgan kulliyot nusxasi bo'lib, unda kulliyot uchun Navoiyning o'zi yozgan so'zboshi "Munojot" bor".

Turk adabiyotshunoslari Navoiydan oldin o'tgan va unga zamondosh bo'lgan shoirlar ijodini baholashda ham Navoiyning fikrlariga "Nasoyimul muhabbat" va "Majolis un-nafois" asarlaridagi qaydlarga suyanadilar.

Alisher Navoiy adabiyotshunos sifatida o'zbek adabiyoti rivojiga xizmat ko'rsatadigan ko'plab asarlar yaratdi. Xususan, uning o'zbek adabiyoti tarixida buyuk manba hisoblanadigan "Majolis un-nafois" asarida 459 ta shoir, yozuvchi va ijodkorlar haqida ma'lumotlar to'plangan. Navoiyning asarlari mazmun va yuksak badiiyati jihatdan ham tengsizdir. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy umri davomida turk tilini rivojlantirishga, uning o'sha paytda keng quloq yozgan fors-tojik tili bilan bemalol tenglasha olishini va turk tilining g'ozalligini isbotlashga harakat qildi. Ushbu tilda mashhur, abadiyat bilan tenglasholadigan asarlar yaratdi. Shunday asarlarida biri „Muhokamat ul-lug'atayn" asari edi. Bu asar ikki til muhokamasiga qurilgan. Ma'lumki, Navoiy davrida o'zbek adabiy tilining rivojlanishida Xorazmiy, Yaqiniy, Amriy, Gadoiy, Atoiy, ayniqsa, Lutfiy o'z asarlari bilan katta hissa qo'shdi. Shunga qaramay o'zbek adabiyotida hali yuksak asarlar mavjud emas edi. Bu davrda fors tiliga e'tibor ko'proq bo'lib, so'z san'atkorlari tomonidan sayqallangan edi. Fors-tojik adabiyoti, lug'ati haqida bir qancha kitoblar bor edi. Shu sababli bu tilda she'rlar British, asarlar yaratish shoirlar uchun osonroq edi. Ko'pchilik o'zbek shoirlari, yozuvchilari ham o'z ona tilida emas, fors tilida qalam tebratardi. Buni Navoiy ham qayd qiladi: „Va hunariz turkning sitam zarif yigitlari osonlikka bo'la forsiy alfoz bila nazm ayturga mashg'ul bo'lubturlar". Navoiy „Muhokamat ul-lug'atayn"da o'zbek tilining boyligini, uning katta imkoniyatlarga ega ekanligini isbotlab beradi.

Alisher Navoiy faqat turkiy xalqlarga emas, balki butun bashariyatga taalluqli mutafakkir shoir. Uning asarlari faqat bir millat uchun yozilgan emas. Ularda tilga olingan har bir muammo va uni bartaraf etish g'oyalari butun insoniyatga daxldordir.

Britaniya kutubxonasi Alisher Navoiy she'riyatini o'z ichiga olgan 30 dan ziyod qo'lyozmalarga ega. Ushbu yirik tadbir hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan o'rnatilgan hamkorlik biz uchun sheriklik dasturidagi dastlabki muhim qadamdir. Biz birgalikda Navoiyning boy poetik merosi hamda Markaziy Osiyoga oid rang-barang qo'lyozmalarini to'plash an'anasi orqali uning mazmun-mohiyatidan butun dunyoni bahramand eta olamiz.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. yuldasheva f. f. alisher navoiy g'azallarida umuminsoniy qadriyatlar talqini journal of new century innovations. – 2022. – т. 11. – №. 5. – с. 98-100.
2. Sirojiddinov Sh.Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. T. 2011. 225-bet
3. yusupdjnovna s. m. insoniylik va umuminsoniy qadriyatlar talqini .